

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021. I.16.03 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**UDK: 378.091.33:811.111**

**KURBANOVA NIGINABONU PARDAYEVNA**

**INGLIZ TILI MASHG‘ULOTLARIDA BO‘LAJAK IQTISODCHILARNING  
KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI**

**Тошкент - 2024**

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                           |            |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>Kirish.....</b>                                                                                                                                                        | <b>3</b>   |
| <b>I BOB. BO‘LAJAK IQTISODCHILARNI INGLIZ TILI DARSLARIDA KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....</b>          | <b>12</b>  |
| 1.1. Ingliz tili mashg‘ulotlarida bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning strategik mohiyati.....             | 12         |
| 1.2. Bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda kompetensiyaviy yondashuv va CEFR talablari asosida takomillashtirishning zarurati.....        | 36         |
| 1.3. Bo‘lajak iqtisodchilarning ingliz tili mashg‘ulotlarida, kasbiy kompetentligini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning amaliyotdagi holati.....           | 53         |
| I bob bo‘yicha xulosalar.....                                                                                                                                             | 61         |
| <b>II BOB. BO‘LAJAK IQTISODCHILARNING INGLIZ TILI DARSLARIDA KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI.....</b> | <b>64</b>  |
| 2.1. Bo‘lajak iqtisodchilarning ingliz tili darslarida kasbiy kompetentligini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari.....          | 64         |
| 2.2. Bo‘lajak iqtisodchilarning ingliz tili darslarida kasbiy kompetentligini takomillashtirishdagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar.....                                   | 81         |
| II bob bo‘yicha xulosalar.....                                                                                                                                            | 101        |
| <b>III BOB. BO‘LAJAK IQTISODCHILARNING INGLIZ TILI DARSLARIDA KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIK DARAJASI.....</b>                                        | <b>104</b> |
| 3.1. Bo‘lajak iqtisodchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari metodikasi .....                                                          | 104        |
| 3.2. Bo‘lajak iqtisodchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalari va samaradorlik darajasi .....                                 | 113        |
| III bob bo‘yicha xulosalar.....                                                                                                                                           | 127        |
| <b>Umumiy xulosalar.....</b>                                                                                                                                              | <b>129</b> |
| <b>Фойдаланилган адабиётлар.....</b>                                                                                                                                      | <b>131</b> |

## KIRISH

### **KIRISH (falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda iqtisodiy landshaft doimiy ravishda rivojlanib, bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda iqtisodiy ta'limning hozirgi holati va bo'lajak iqtisodchilarning xalqaro iqtisodiy masalalarni bilish, iqtisodiy o'zgarishlarni tahlil qilish, muloqot va axloqiy qarorlarni qabul qilish ko'nikmalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. "2020-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti global iqtisodiy tarmoqlarni qurish va xalqaro iqtisodiy ta'lim tashabbusini shakllantirishda bo'lajak iqtisodchi kadrlarning malakasini oshirish" loyihasini ishlab chiqqan. Xalqaro iqtisodiy ta'lim jarayonini rivojlantirishda bo'lajak iqtisodchilarning xalqaro miqyosda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha yondashuvlar tatbiq etilmoqda.

Dunyoda iqtisodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, jamoaviy ish va tengdoshlarning fikr almashinuvi afzalliklarini ko'rsatishda hamkorlikdagi ta'lim loyihalari samaradorligini oshirish bo'yicha ustuvor ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yuqori malakali iqtisodchi mutaxassis kadrlarni tayyorlashda raqamli texnologiyalardan kreativ foydalanish, zamonaviy jamiyatda texnologik iqtisodiyotni amalga oshirishning real tarmoqlari, sanoat korxonalari xodimlarining kasbiy bilimlarini oshirishni va xorijiy til ko'nikmalarini oshirishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar asosida kasbga yo'naltirilgan o'qitish yondashuvini joriy qilish, bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "O'quv jarayoniga mutaxassislarning bir necha xorijiy tillarni bilish, talabalarning kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirish, ta'lim jarayoni mazmunini innovatsion takomillashtirish, optimallashtirish, iqtisodiyot yo'nalishlarining bo'lajak iqtisod, moliya, buxgalteriya, raqamli iqtisodiyot kabi mutaxassislar uchun kasbiy motivatsiya berish, investorlar, tadbirkorlarning hamkorlik qilish oliy ta'lim

mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha shart-sharoitlarini yaratish"ga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli, 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–6097-son Farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ–4623-son, 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–5117-son qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori<sup>1</sup> hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 46 b.; O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi 576 – sonli "Ilm – fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz); O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ–637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-sonli «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi PQ–4884-son Farmoni [www.lex.uz](http://www.lex.uz); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda PQ–1975-son Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori [www.lex.uz](http://www.lex.uz); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ – 2909 - sonli «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ–3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida»gi qarori.